

AXBOROT URUSHIGA QARSHI KURASHNING ZARURATI VA AHAMIYATI

Najmiddin Musinov

Jizzax davlat pedagogika universiteti

“Falsafa, tarbiya va huquq ta’limi” kafedrası katta o‘qituvchisi

u.vaxobov0794@mail.com

Annotatsiya: Jamiyatni axborotlashtirishning asosiy maqsadi-mehtat unimdorligini oshirish va mehnat sharoitlarini engillashtirish orqali odamlarning hayot sifatini yaxshilashdir. Bunday jamiyatning rivojlanish mezonı albatta komyuterlarning mavjudligi va komyuter tarmoqlarining rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Maqolada aynan axborotlashtirishga, axborot urushlariga urg‘u berilgan.

Kalit so‘zlar: Axborot, Axborot jamiyati, axborot xuruji, texnika, Manaviy tahdid, madaniyat.

NECESSITY AND IMPORTANCE OF COMBATING INFORMATION WAR

Annotation: The main purpose of informing society is to improve people’s quality of life by improving their integrity and easing their working conditions. The criterion for the development of such a society is determined, of course, by the availability of computers and the level of development of computer networks. The article emphasizes the same information and information wars.

Keyword: Information, information society, information attack, technology, spiritual threat, culture.

So‘ngi o‘n yillikda hozirgi jamiyat ijtimoiy axborot jarayonlari evalyutsiyasini hisobga olgan holda “axborot jamiyati” “bilimlar jamiyati” va “raqamli jamiyat” deb nomlanib kelmoqda. Raqamli va axborot jamiyati bu insonlarning aksariyati ma’lumotlarni ishlab chiqish, saqlash va sotish bilan shug‘ullanadigan jamiyat, uning tag zamirida yuqori vosita bilimdir. Bunday vositalar orqali qilinayotgan axborot xurujlari jamiyat azolarining ongu tafakkuriga, urf odatlari va madaniyatiga o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Nafaqat bugun texnika rivojlangan davrda, balki Inson ongiga ta’sir o‘tkazish, uning xulq-atvorini o‘zgartirish misollari qadimgi zamonlardan

ma'lum. Misr, Xitoy, Qadimgi Gretsiya va Rimda shakllangan insonning fikri, ruhiy holati va xatti-harakatlarini boshqarish san'ati haqidagi misollar tarixiy manbalar yordamida bizlargacha yetib kelgan. Hozirgi kunda axborot maydoni globallashtiruvining avj olishi, zamonaviy tashviqot usullari va texnik vositalarining takomillashuvi nafaqat alohida olingan shaxsning ongiga, balki butun bir xalqlarning turmush tarziga ta'sir o'tkazish, davlatlarning siyosatini tashqaridan turib boshqarish uchun sharoit yaratmoqda.

Jamiyatning axborotlashishi insonlarda ijodiylik va yaratuvchanlik qobiliyatlarini shakllantiradi. Axborot axloqqa asoslanishi, axloq esa berilayotgan axborot va axloqiy me'yorlarga asoslanishi lozim. Inson ma'naviyatli yoki axloqli bo'lib tug'ilmaydi. Ma'naviyat va axloq amaliy faoliyat natijasida, ya'ni hayot jarayonida hosil bo'ladi. Yoshlar dunyoqarashi orqali axborotlarni o'rganishi, hosil bo'lgan bilimlari esa uzoq davom etadigan ziddiyatli, shuning bilan birga murakkab jarayon bo'lib, u bilmaslikdan bilishga qarab boradi¹.

Bugungi kunda jamiyatning g'oyaviy-mafkuraviy sohasida "axborot xurujlariga ma'naviy tahdidlar"ga, u olib kelayotgan g'oyaviy va axloqiy tubanlik illatlariga qarshi kurash asosiy vazifa bo'lib qolmoqda. Bu borada milliy g'oya va milliy madaniyatni, tarbiyani, ma'naviyatni, islomiy o'gitlarni shu kunga qadar ota-bobolarimiz e'tiqod bilan asrab kelgan qadriyatlarni jonlantirish yo'li tanlab olindi. Mafkuraviy kurashlardan chiqarilgan xulosa, ularning oqibatidan orttirilgan tajriba va boshqa davlatlar, xalqlarning bu boradagi yo'qotishlaridan olingan ibrat mustaqil fikrlovchi, hurfikr, talabchan didli odamlar qancha ko'p bo'lsa, "yot g'oyaviy xurujlar"ning ta'siri va zarari shuncha oz bo'ladi. Ular o'zlariga taklif etilayotgan bemaza, sayoz, betayin madaniyat va san'at asar(tovar)lariga qayrilib ham qaramaydilar.

Bunday vaziyatlardan chiqib keta olish, avvalambor, uning olidini olish uchun intilishdan boshlanadi. Bu borada milliy ma'naviyatning shakllanishi va rivoji odatda uch tarkibiy bo'g'inda namoyon bo'ladi. Mafkura ko'rinishidagi birinchi bosqich ma'lumot, axborot to'plash, asosan so'z, mulohaza, ibrat, g'oya va nazariyalar darajasida ifodalanadi. Inson ma'naviy meros, qadriyatlar bilan tanishadi va ularni o'zlashtiradi, yangilikni dunyoqarashiga singdiradi. Bu – ishonch bo'g'inidir. Taassufki, ayrim yoshlarimizda ma'naviy merosimiz haqidagi bilimlar hamon sayozligicha qolib ketmoqda.

Ikkinchi bosqich – insonga yoshligidan singdirilgan milliy-madaniy qarashlar, axloqiy qadriyatlar, an'analar, diniy-ruhiy tuyg'ulardan iborat. Bu bo'g'inda u oilasi, qarindosh-urug'lari, mahallasi, millati, yurti bilan birligini, uning tarkibiy qismi

¹ Vaxobov U, (2024). AXBOROT OQIMI JADALLASHUVINING YOSHLAR MA'NAVY-AXLOQIY QIYOFASIGA TA'SIRI VA MUAMMOLAR, Innovative Development in Educational Activities, Multidisciplinary Scientific Journal, 143.

ekanligini his etadi. Natijada, uning ongi va qalbida milliy gʻurur, vatanparvarlik tuygʻusi, asosiysi, yuksak maʼnaviyat shakllanadi. Bu jarayon natijasida shaxsda haqiqiy insoniylik tuygʻulari shakllanadi.

Uchinchi bosqich bilim, ijodiy izlanish, fahm-farosat bilan belgilanadi. U odamlarning tafakkurida maʼrifat, dunyoviy maʼnaviyat timsolida namoyon boʻladi. Buyuk allomalarimizning qudrati ana shu dunyoviy maʼnaviyatni diniy bilimlar, maʼnaviyat bilan uzviylikda kamolga etkazganliklaridadir.

Eski gʻarbparastlik va evropamarkazchilikning vorisi boʻlgan liberallashuv hamda globallashuv toʻniga oʻralgan bunday qarashlar milliy tafakkurimiz, urf-odat va anʼanalarimizga qanchalik mos keladi? Taniqli adabiyotshunoslarimizdan biri yoshlarga qilgan maʼruzasining birida noxolis ijodkorlar haqida gapirib, fransuz adibi Markiz de Sad oʻzining fisqu fujurga toʻla kitobining soʻz boshidan iqtibos olib misol keltiradi: “Biz olis Sharqdagi mamlakatlarni bosib olish uchun endi fransuz askarining oʻq egan etigidagi oyogʻi chirib bitishi shart emas, shunchaki jang qilmay, uyatsiz mahsulotlarimizni reklama qilsak boʻldi, ertaga dunyoning oʻzi oyogʻimiz tagiga yukinib keladi”. Qanchalik achinarli boʻlmasin, ana shunday gullab-yashnagan madaniyatlarning koʻp hollarda “usti yaltiroq” boʻlib chiqmoqda. Bu borada Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov shunday degan edi: “Har qanday kasallikning oldini olish uchun, avvalo, kishi organizmida unga qarshi immunitet hosil qilinadi. Biz ham farzandlarimizni ona Vatanga muhabbat, boy tariximizga, ota–bobolarimizning muqaddas diniga sadoqat ruhida tarbiyalash uchun, taʼbir joiz boʻlsa avvalo ularning qalbi va ongida mafkuraviy immunitetni kuchaytirishimiz zarur”¹.

Kelajak egalari boʻlmish avlodni tarbiyalab voyaga etkazish uchun ularni nafaqat jismoniy sogʻlom, balki sharqona xulq-odob va umumbashariy gʻoyalar bilan kamol topgan barkamol inson qilib tarbiyalash kerak boʻladi va bu sohada bir muncha natijalarga erishilmoqda. Bu borada mahalla ettilik jamoasi, oqsoqollari va faollari, har narsadan ogoh fuqarolik yigʻinlarining diniy maʼrifat va maʼnaviy-axloqiy masalalar boʻyicha maslahatchilarining samarali ishlari ham oʻz mevasini bermoqda. “Bugungi kunda oʻz hayotini ana shunday masʼuliyatli sohaga bagʻishlagan koʻplab isteʼdod sohiblari yurtimizda yangi hayot, yangi jamiyatning maʼnaviy asoslarini mustahkamlash, komil insonni tarbiyalash yoʻlida munosib hissa qoʻshib kelmoqda. Bu borada Prezidentimiz SHavkat Mirziyoyevning Jadid bobolarimiz hayoti va ijodi, maʼnaviy meʼrosini unda ifodalangan ezgu gʻoyalarni yoshlarimizning ongi va qalbiga singdirish lozimligi toʻgʻrisidagi koʻrsatmalari ham bejiz emas. Hozirgi vaqtda dunyoda kuchayib borayotgan turli gʻoyaviy tahdidlarning oldini olish, ularning zararli taʼsiridan farzandlarimizning ongu tafakkurini himoya qilishda ilmu fan va madaniyat

¹ Karimov I.A Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch–T: Maʼnaviyat, 2008. –B. 119.

jamoatchiligi, ijod ahlining o‘rni va roli tobora ortib bormoqda. Nega deganda, bizning milliy ruhimiz va tabiatimizga yot va begona bo‘lgan ana shunday “madaniyat” namunalarini faqat tanqid va inkor qilish yoki ularni taqiqlash bilan biron natijaga erishib bo‘lmaydi”¹. — deganida, birinchi Prezident Islom Karimov naqadar haq so‘zni ta’kidlagan. Yana shu o‘rinda Islom Karimov xorijiy “madaniyat” omollarini tanqid qilish bilan bir ish chiqmasligini ham aytgan edi. Joriy yilda muhtaram Prezidentimiz SHavkat Mirziyoyev ma’naviyat va marifat kengashi yig‘ilishida buyuk maqsad yo‘lida xalqni birlashtiradigan, madaniyatimiz va ma’naviyatimizga qarshi qaratilgan turli axborot xurujlariga qarshi turaoladigan milliy g‘oya va mafkuraga ehtiyoj borligini ta’kidlab o‘tdilar.

Bu borada amerikalik siyosatshunos Z.Bjezinskiy shunday yozadi: “Madaniy ustunlik Amerika global kuch-qudratining muhim jihati sanaladi. Ayrimlar o‘zining estetik qadriyatlari haqida qanday fikrda bo‘lmasin, Amerika “ommaviy madaniyati”, ayniqsa, jahon yoshlarini ohangrabo kabi o‘ziga tortadi. Uning jozibadorligi ehtimol shu madaniyat orqali targ‘ib qilinayotgan hayotni sevish falsafasi, hayot sifati bilan bog‘liqdir, lekin Amerika madaniyatining jozibadorligi shak-shubhasizdir. Amerika televizion dasturlari va filmlari jahon bozorining qariyb to‘rt dan uch qismini egallagan. Amerikaning ommabop musiqasi ham ustuvor mavqega ega, shuningdek, amerikaliklarning qiziqishlari, ovqatlanishdagi odatlari, hattoki, kiyinishlariga butun dunyoda taqlid qiladilar. Internet – ingliz tilida va kompyuterdagi so‘zlarning aksariyat qismi Amerikadan bo‘lib, global muloqotning mazmuniga ta’sir o‘tkazadi. Va nihoyat, Amerika zamonaviy ta’lim olishga intilayotganlar uchun «Makka»ga aylangan.”². Agar ta’lim oluvchi emigrant talabalar, mutaxassislar o‘z mamlakati manfaatini o‘ylamay ishlab qolib ketsa bundan yomoni yo‘q. Bu esa sadoqat, o‘zga g‘oyalarga berilmaslik, “chet el ho‘rozqandi”ga uchmaslik, eng asosiysi iymon-e’tiqodni talab etadi. Buning uchun kishida milliy tarbiya asoslari mavjud bo‘lishi kerak.

Bugungi plyuralizmga, turfa qarashlarga asoslangan jamiyatda ijtimoiy hayotda plyuralistik axloq normalariga amal qilinishi tabiiy hol. Har bir jamiyat, hattoki har bir individ o‘zining shaxsiy hayotida o‘ziga xos tarzda shaxsiy xulq atvori va fikriga ega. Lekin bugungi globallashuv va madaniy transformatsiya kechayotgan jamiyatda muayyan kuchlar tomonidan o‘z g‘oyalarini etkazish, aniqroq qilib aytganda g‘oyani zo‘rma zo‘raki tiqishtirishning ming bir usuli o‘ylab topilgan va bu ko‘p hollarda yashirin kechadi. “Inson ruhiyati bilan o‘ynashish bolalar gugurt o‘ynashidan ham dahshatliroq oqibatlarga olib kelishi mumkin. Binobarin, psixotron qurol atom

¹ Karimov I.A Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch–T: Ma’naviyat, 2008.. 133-134-бетлар.

² Bjeniskiy Z. Belikaya shaxmatnaya doska.Gospadstvo Amerika I geostrategicheskie imperativi–M., 1998. S. 38.

bombasidan ham kuchliroqdir”, degan edi Rossiya Tibbiyot fanlari akademiyasining muxbir-a’zosi V.P.Kaznacheev¹.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki bugun yoshlarimizning **Birinchidan**, g‘oyaviy-mafkuraviy salohiyatini o‘stirish va barkamol avlod tarbiyasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan to‘g‘ri foydalanishni; **ikkinchidan**, axborot-kommunikatsiya va internet texnologiyalari yutuqlaridan oqilona va maqsadli foydalanish; **uchinchidan**, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan va axborotlardan foydalanish muhitini yaratish; **to‘rtinchidan**, internet tarmog‘ida yoshlarga, ularning qiziqishlariga va intilishlariga, axborot ehtiyojlariga yo‘naltirilgan elektron manbalarni tashkillashtirish kerak.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov I.A Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch–T: Ma’naviyat, 2008. –B. 119.
2. Bjeniskiy Z. Belikaya shaxmatnaya doska.Gospadstvo Amerika I geostrategicheskie imperativi–M., 1998. S. 38.
3. Sh.Jobbor. yozuvchi.uz / Blog / chizgu/ Archive /20. 2011. Noyabr. 2.
4. Vaxobov U, (2024). AXBOROT OQIMI JADALLASHUVINING YOSHLAR MA’NAVIY-AXLOQIY QIYOFASIGA TA’SIRI VA MUAMMOLAR, Innovative Development in Educational Activities, Multidisciplinary Scientific Journal, 143.
5. Vaxobov U, O‘ZBEKISTONDA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLAR VA ULARNING MADANIY SOHADAGI FAOLIYATI YO‘NALISHLARI //TA’LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – C. 282-285.
6. Khakimovich A. A., Ulugbek V. Peculiarities of Formation of Exemplary Skills in Young People in the Conditions of Globalization //Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences. – 2022. – T. 15. – C. 17-21.

¹ Sh.Jobbor. yozuvchi.uz / Blog / chizgu/ Archive /20. 2011. Noyabr. 2.